

Sinf: 1-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar ikki yoki undan ortiq arifmetik ifodalarni hisoblaydi, ularning natijalarini solishtiradi va to'g'ri taqqoslash belgilarini qo'llaydi (" $<$ ", " $>$ ", " $=$ "). Ular raqamli ifodalar ustida izchil fikrlash va qiyoslash orqali mantiqiy qaror chiqarish ko'nikmasini shakllantiradilar.

Mashg'ulot davomiyligi

 30 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 1-sinf Matematika darsligidagi **Ifodalarning qiymatlarini taqqoslash** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

 **Ifoda** – bu misol yoki arifmetik amal.

+ $2 + 3$ va $4 + 1$ — bu ikkita ifoda, har ikkalasining qiymati 5 ga teng.

 Taqqoslashda avval ifodani hisoblaymiz, so'ng natijalarni taqqoslaymiz.

 Matematik belgilar yordamida: $>$ (katta), $<$ (kichik), $=$ (teng) deb yozamiz.

 **Amaliy mashg'ulot: "Qaysi ifoda kattaroq?"**

 **Mashg'ulot maqsadi:** O'quvchilar ikki yoki uchta ifodani alohida-alohida hisoblab, ularning qiymatlarini taqqoslaydi va to'g'ri belgilar yordamida ularni bog'laydi.

 **Mashg'ulot bosqichlari:**

1. Raqamli kartochkalar bilan hisoblash

– O'quvchilarga ikki juft misol yozilgan kartochkalar beriladi:

Masalan: $3 + 2$ □ $6 - 1$

– O'quvchi avval hisoblaydi: 5 □ $5 \rightarrow$ belgini " $=$ " deb qo'yadi

2. Belgilarni joylashtirish o'yini

– Har bir o'quvchi $<$, $>$, $=$ belgilarini rasimli kartochka tarzida olib, mos joyga joylashtiradi

3. Misollarni shakl bilan ifodalash

- Har bir ifoda qiymatini rangli tugmalar yoki qog'oz aylana yordamida ko'rsatadi
- Masalan: $4 + 1$ uchun 5 ta tugma, $2 + 3$ uchun 5 ta – taqqoslashni ko'rgazmali qiladi

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

- Ifodalarni yechish, qiymatni aniqlash
- Sonlarni taqqoslash va matematik belgilarni to'g'ri ishlatish

Texnologiya

- Belgilarni qo'lda kesib olish va mos ifodaga qo'yish
- Amaliy vositalar yordamida (tugma, aylana, kvadrat) son qiymatini ko'rsatish
- Harakat orqali taqqoslashni his qilish (tasniflovchi tafakkur)

Informatika

- Interaktiv misollar va grafik asosida ifodani hisoblash
- Belgilarni tanlash, sudrab olib qo'yish (drag & drop)
- Jadvalda ifodalar qiymatini solishtirish

Tabiiy fanlar

- Obyektlar sonini ko'rish, sanash va taqqoslash
- “Ko'proq–kamroq” kabi haqiqiy holatdagi taqqoslashga asoslangan mantiqiy fikrlash

Qiziqarli fakt

 Matematikaga “=” belgisi 1557-yilda Robert Rekord nomli ingliz olimi tomonidan kiritilgan! U “nima uchun boshqa belgini ishlataylik, tenglikni ifodalash uchun ikki teng chiziq yetarli-ku!” degan ekan.